

## “RAVZAT AS - SAFO” ASARNING JANRI, TARKIBIY TUZILISHI VA JAHON MIQYOSIDA O‘RGANILISHI

*Karimov Sherzod Shavkat o‘g‘li*

*Sirdaryo viloyati Xovos tumani 1-umumta’lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** XVI asrda yozib tugatilgan Mirxondning “Ravzat us-safo” asari nafaqat Markaziy Osiyo olimlari, balki dunyo hamjamiyati tomonidan hozirgi kungacha katta qiziqish bilan o‘rganilmoqda. Asarning xolisona va tarixiy faktlarga asoslanib yozilganligi uning qiymatini yanayam oshishiga sabab bo‘lmoqda. Mazkur maqolada esa “Ravzat us-safo” asarining janri, tarkibiy tuzilishi hamda uning jahon miqyosida o‘rganilish masalasi muhokama qilinadi. Asarning yozilgan davridagi siyosiy-ijtimoiy hayot, ilm-fanga bo‘lgan e’tibor, tarix fanini o‘rganishga bo‘lgan imkoniyatlar ham e’tiborga olingan.

**Kalit so‘zlar:** “Ravzat us-safo”, amir ush-shuaro, Ixlosiya, sayyidlar, amir ul-muarrixin, “Saforatnomai Xorazm”.

Mirxondning “Ravzat as - safo” asari nasriy uslubda yozilgan bo‘lib, XV asr tarixnavislik ilmida muhim ahamiyatga ega. Bu asarning to‘liq nomi “Ravzat as - safo fi siyrat ul- anbiyo va- l- muluk va- l- xulafu” (Payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalarning tarjimai holi haqida jannat bog‘i) bo‘lib, undan dunyoning yaratilishidan to 1523 - yilga qadar Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida bo‘lib o‘tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar keng bayon etilgan. “Ravzat as - safo” muqaddima, yettita jild, xotima va jug‘rofiy qo‘shimchadan tashkil topgan. Asar rangin va jozibali tilda, sodda va ravon uslubda yozilgan bo‘lib, ilk sahifalardan o‘quvchining etiborini o‘ziga tortib oladi. U juda ko‘p ibratli, ta’sirli, qiziqarli voqealarni o‘z ichiga oladi. Asar tili va uslubiga ko‘ra, o‘z davrining bebaho adabiy yodgorligi hisoblanadi. Tarixchi ushbu asarni o‘zigacha bo‘lgan davrning ko‘plab tarixiy asarlarni sinchiklab o‘rganish natijasida yozgan bo‘lib, bir voqeani bayon qilishda bir qancha manbalarni solishtirib o‘rgangan va uning keltirgan ma’lumotlari boshqalarga nisbatan to‘liqroqdir. Ushbu tarixiy manba sharq tarixchilik qoidalariga mos ravishda olam yaralishidan boshlanadi va to temuriylar davri ya’ni temuriy Husayn Boyqaro va uning vorislari boshqaruvigacha bo‘lgan davr tarixni bayon qiladi. Kitob muqaddima, xotima, yetti jildidan va geografik ilovadan iboratdir. Ular quyidagilar:

Dunyoning “yaratilishidan” to Sosoniylar Yazdigard II davrigacha;

Muhammad payg‘ambar va xalifayi Roshidinlar davri;

12 imom tarixi, Ummaviy va Abbosiy xalifalar tari;

Abbosiyilar bilan zamondosh sulolalar;

Chingizxon va uning avlodlari;

Amir Temur va uning avlodi to Sulton Abu Saidning vafotiga qadar;

Sulton Husayn Boyqaro va uning avlodlari.

Asarning 1 – 6 - jildlari kompilyatsiya - boshqa asarlardagi ma’lumotlar asosida yozilgan bo‘lsa, 6 - jildning bir qismi va 7 - jildlar olimlarning o‘zi guvoh

bo'lgan voqealarga asoslanib yozilgan<sup>1</sup>. Uning 6 - jildining bir qismi va 7- jildi Xondamir tomonidan yozib tugatilgan. Asarning, shuningdek, geografik ilovalar qismi ham mavjud bo'lib, uni Mirxond 1495 - yildan yozib boshlagan va 1523-yil Xondamir uni yozib tugatgan. Asar fors tilida yozilgan va to'liq nomi "Ravzat as-safo fi siyrat al-anbiyo val-muluk va-l-xulafu" deb nomlanadi. Mazkur bebaho asarning parchalari fransuz, lotin, shved, nemis va boshqa bir qator tillarga tarjima qilingan va o'rganilgan. Uzoq vaqt davomida ushbu asar Yevropaliklar uchun Sharq tarixni o'rganishda muhim manba bo'lib hisoblangan. Asarning nodir qo'lyozmalaridan biri Sankt-Peterburgda, D 203 raqami ostida Rossiya Fanlar akademiyasining sharq qo'lyozmalari institutida saqlanmoqda. 1608 yilda ko'chirilgan, 233 varaqdan iborat bu qo'lyozmaning ayrim sahifalariga oltin suvi yugurtirilgan. Mazkur kitobda Tohiriylar davridan to Amir Temurning davlat tepasiga kelishiga qadar bo'lgan voqealar (820 - 1370 yy.) bitilgan. Shundan ushbu kitob asarning 4, 5 - qismlarini o'z ichiga olgan, deb xulosa qilish mumkin. Sankt - Peterburgda o'tkazilgan "O'zbekiston madaniy merosi - xalqlar va mamlakatlar o'rtasida muloqotga yo'l" Ikkinchi xalqaro kongress ishtirokchilariga anjuman doirasida ushbu nodir qo'lyozmani ham namoyish etilgan.

Mirxondning "Ravzat as - safo" asari juda ko'plab mamlakatlar uchun o'z tarixni o'rganishda qimmatli manbadir. Kitob ko'pgina tadqiqotchilar uchun Markaziy Osiyo tarixi, xususan, temuriylar davrini o'rganishda xuddi shunday manba bo'lib xizmat qiladi. Asarning o'zbekchaga tarjimasi Muhammad Rahimxon Feruz davri (1865 - 1873) da mashhur shoir va tarixchilar Shermuhammad Munis (1778 - 1829) va Muhammad Rizo Ogahiy (1809 - 1894) tomonidan amalga oshiriladi. Asrlar o'tishi bilan sulolalar o'zgardi, davru davronlar almashdi. Shu bois XVI asr birinchi choragidan keyingi voqealarni puxta, asosli yoritadigan asarlarga ehtiyoj sezila bosh-lagandi. Ammo, bu singari katta hajmli asarni munosib tarzda davom ettirishga har qanday tarixchi olim jur'at eta olmagan. Biroq, Eronda Qojorlar davrida yashagan mashhur tarixchi, shoir va diplomat Rizoqulixon Hidoyat (1800 - 1871) ana shu ishga qo'l urdi. Rizoqulixon yoshligidan Qojorlar sulolasining vakili Fathali Shoh(1797 - 1834)ning saroyida xizmat qilgan. O'zining rangin she'rlari bilan shohning nazariga tushgan Rizoquli "amir ush-shuaro" ("shoirlarning amiri") unvonini olgan. U sulolaning keyingi vakili Nasriddin Shoh Qojor zamonida ham (1848 - 1896) saroyda mas'ul vazifalarda ishlagan. Saroy kutubxonasi rahbari bo'lgan. Keyinchalik, Eronda yangi usuldagi maktab ochib, uni boshqargan. Rizoqulixon Hidoyat Sharqda forsiy tildagi eng mukammal tarixiy asarlardan biri sanalgan "Ravzat as - safo" asarining davomini yozishga kirishdi. Rizoqulixon Mirxondning bayon uslubini saqlagan holda Safaviylar davridan boshlab, Afsharlar, Zandlar va Qojorlar sulolasi davrida Eron, Xuroson va qisman Movarounnahrda yuz bergan voqealarni o'zining uch jildli asarida yozib qoldirgan. Asar Nasriddin Shohga bag'ishlab bitilgani uchun uning ismiga monand tarzda "Ravzat as - safoi Nosiriy"

<sup>1</sup> Madraimov.A. Fuzailova.G. Manbashunoslik. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – B. 204.

deb nomlangan. Rizoqulixon Hidoyat 1851 yilda Nasriddin Qojor (1834 - 1848)ning topshirig‘i bilan va xoni Muhammad Aminxon (1845-1855) huzuriga elchi bo‘lib keladi. Mazkur elchilik asnosida Eron - Xorazm munosabatlariga oydinlik kiritish yuzasidan muzokaralar olib borilgan. Xorazmdagi sayohati haqida u “Saforatnomai Xorazm” (Xorazm safari kundaligi) asarini ham yozadi. (Mazkur asar 2009 yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida Ismoil Bekchon tarjimasida o‘zbek tilida bosilib chiqqan). Mazkur asarida Rizoqulixon Xorazm xalqining tarixi, madaniyati, turmush tarzi, urf - odat va an‘analari, xususan, Xiva xonligida X asr boshlaridagi ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy vaziyat haqida qimmatli ma‘lumotlar beradi. Chamasi, Hidoyat Xiva xonligiga tashrifidan sal avvalroq “Ravzat as - safoyi Nosiriy” asarini yozib tugatgan edi va mazkur asarning bir nusxasini o‘zi bilan olib kelgan. U Xivada bo‘lgan paytida buyuk o‘zbek shoiri Ogahiy bilan ham uchrashgani, u bilan ijodiy hamkorlik qilgani ma‘lum. “Ravzat as - safo”ning Tehronda dastlab chop etilishi Rizoqulixon Hidoyat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib toshbosma shaklidir. U tomonidan asarning faqat ikki jildi nashr etilgan va ancha qisqartirilgan holatga keltirilgan. Keyingi davrda asarning 6 - jildi ya‘ni Mirxondning o‘zi tomonidan yozilgan deb taxmin qilinadigan qismi Tehronda Abbos Zaryob tomonidan nashrga tayorlangan. Kitobning kirish qismida asarni nashrga 1952 - yildan tayyorlanib boshlangani va 1960 - yilda yakunlangani haqida yoziladi<sup>2</sup>. Biz Ravzat as-safoni tadqiq qilish jarayonida aynan Tehronda Abbos Zaryob tomonidan nashrga tayyorlangan nusxasidan foydalandik. Hozirgi kunga qadar bo‘lgan davrda asar bir qancha Yevropa tillariga ham tarjima qilingan bo‘lib, ushbu tillarga qilingan tarjimalar to‘liq emas va kitobning ma‘lum qismlarigina tarjima qilingan. Masalan, Ispaniya, Angliya, Avstriya, Fransiya va Rossiyada “Ravzat as - safo” ning tarjimalari nashr etilgan<sup>3</sup>. Ispanchaga 1596-yilda qilgan tarjimasida Turonshoh va Qutbiddin voqealari yoritilgan. 1715- yilda Londonda “The history of Persia : containing the lives and memorable actions of its kings from the first erecting of that monarchy to this time ... ; to which is added an abridgment of the lives of the kings of Harmuz or Ormuz” nomi ostida nashr etilgan inglizcha nashr ham Pedro Teysheiraning ispanchasidan tarjima qilingan<sup>4</sup>. 1782 - yilda esa Tohiriylar va Safforiylar qismlari (2, 3, 4 - boblar) Avstriyaning Vena shahrida lotin tiliga tarjima qilindi<sup>5</sup>. Shuningdek, Sosoniylarga bag‘ishlangan (1,2- boblar) qismi A.S.Sacy tomonidan 1793- yilda fransuz

<sup>2</sup> Mirxond. Ravzat as-safo. – Tehron.: Mahorat, 1960. – B. 5.

<sup>3</sup> The history of Persia: containing the lives and memorable actions of its kings from the first erecting of that monarchy to this time ; to which is added an abridgment of the lives of the kings of Harmuz or Ormuz. – London.:1715 – 459 p; Historia priorum regum Persarum post firmatum in regno Islamismum. – Viennae.:1872. – 387 p; A. S. Sacy. Mémoires sur diverses antiquités de la Perse, et sur les médailles des rois de la dynastie des Sassanides ; suivis de l’Histoire de cette dynastie, traduite du Persan de Mirkhond. – Paris.:1793 – 340.; The Rauzat -us - safa. Albemarl. – London.: Albemarl, 1891. – 234 p; Материалы по истории туркмен и Туркмении, Том I. VII-XV вв. Арабские и персидские источники. – Москва:1939. – 535 с;

<sup>4</sup> The history of Persia: containing the lives and memorable actions of its kings from the first erecting of that monarchy to this time ... ; to which is added an abridgment of the lives of the kings of Harmuz or Ormuz. – London.:1715 – 459 p.

<sup>5</sup> Historia priorum regum Persarum post firmatum in regno Islamismum. Viennae.:1872. – 387 p.

tiliga o‘girildi<sup>6</sup>. Shuningdek, Asarining 1 va 2 - jildlari Londonda ham nashr etilgan. Fors tilidan tarjimoni E. Rehatsek amalga oshirgan<sup>7</sup>. Asarning 7 - jildi yuqorida ham aytganimizdek, alohida ahamiyatga ega Chunki, bu jild birinchidan muallif yashagan davr tarixni yoritgan bo‘lsa ikkinchi tomonda u Xondamir tomonidan tugatilgan degan taxmin ham mavjud. Asarning aynan shu 7- jildi. 1939 - yilda rus tadqiqotchilarining “Материалы по истории туркмен и Туркмении, Том I. VII – XV вв. Арабские и персидские источники” to‘plami tarkibida keladi. Yakubovskiy tomonidan tuzib chiqilgan bu to‘plamda IV bob II – XV asr manbalariga etibor qaratilib, A.A.Gomaskevich tomonidan tarjima qilingan “Ravzat as - safoning” Sulton Husayn va uning avlodlariga bag‘ishlangan qismi shu yerdga joylashtirilgan<sup>8</sup>. Yuqorida aytilganidek, “Ravzat as - safo” ning o‘zbek tiliga tarjimasini Munis tomonidan boshlangan, bu ishni endilikda Ogahiy davom ettirayotgan edi. Shoir keyinchalik, ushbu yirik tarixiy asarning Rizoqulixon qalamiga mansub qismini ham o‘zbekchaga o‘giran. Bugungi kunda Mirxond va Xondamir qalamiga mansub “Ravzat as - safo” asari bilan birga Ogahiy tarjimasidagi “Ravzat as - safoi Nosiriy” asari ham Rossiya fanlar akademiyasining Sankt-peterburgdagi sharq qo‘lyozmalari institutida saqlanmoqda.

<sup>6</sup> [A. S. Sacy](#). Mémoires sur diverses antiquités de la Perse, et sur les médailles des rois de la dynastie des Sassanides ; suivis de l’Histoire de cette dynastie, traduite du Persan de Mirkhond. - Paris.:1793– 340 p.

<sup>7</sup> The Rauzat -us -safa.Albemarl. – London.: Albemarl, 1891 – 234 p.

<sup>8</sup> Материалы по истории туркмен и Туркмении, Том I. VII-XV вв. Арабские и персидские источники. - Москва:1939. – С. 535.